

STOMATOLOGIYAGA KIRISH. STOMATOLOGIYADA ISHLATILADIGAN ASHYO-ASBOBLAR

Salohiddinova E'zoza

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada stomatologiya fanining tarixiy rivojlanishi, Ergonomika haqida tushuncha. Stomatologik amaliyotda qo'llaniladigan asosiy asbob uskunalar va asbob ashyolarga qo'yiladigan talablar haqida tushunchalar.

Kalit so'zlar: Stomatologik ashyo-asboblar, plombalar, stomatologiya, tishlarni davolash, tish shifokorligi, ergonomika.

Stomatologiya qariyb 2500 yil oldin Misrda boshlangan. Tarixda stomatologiya sohasida 17-18 asrgacha sataroshlar, hammomchilar, hunarmandlar faqat tishlarni olib shug'ullanib kelishgan. 18-asrlardan keyin stomatologiya rivojlana borgan va bunga Per Fosher sababchi bo'lgan. Tish shifokorlari ishlari sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Per Fosher tish shifokorligining asoschilaridan. U klassik "Xirurgik dentist yoki tishlarni davolash" nomli asar yozgan. Fosher tishlarni davolash uchun asbob-uskunalarni takomillashtirgan, tishlarni charxlash uchun bormashinalardan foydalangan. 1770-yillarda hozirgilarga yaqin plomba ashyolari paydo bo'la boshlagan. 19 asrda fransuz shifokorlari Arnazzan va Delabarr karies bo'shliqlarini davolash va plombalash usullarini taklif qilganlar, va shu qatorda bir necha olimlar plomba ashyolari va amalgamalarning turli xilini yaratishgan. Bora-bora qo'l bormashinalaridan tortib oyoq bormashinalarigacha takomillashib bordi. Bormashinalardan karies bo'shliqlarini charxlash tish bo'shlig'ini ochish, ildiz kanallarini kengaytirib tishlarning qirralarini silliqlashda foydalanishgan. Keyinchalik 1810-yillarda Rossiyada tish shifokorligi rivojlana boshladi. Tish shifokorligi maktablari ochila boshladi. 1954-yilda Toshkent tibbiyot institutida xirurg-stomatolog, dotsent Mixail Vladimirovich Paradoksovning tashabbusi bilan stomatologiya fakultetini ochilishiga muvaffaq bo'lindi. 2014-yilda Stomatologiya instituti alohida ajralib chiqdi, va bir necha yil faoliyatlardan so'ng 2025-yilda Toshkent tibbiyot akademiyasi, Pediatriya instituti va stomatologiya instituti birlashib Toshkent davlat Tibbiyot Universiteti tashkil qilindi.

Ergonomika bu-inson faoliyati uchun qulay, xavfsiz va samarali mehnat sharoitlarini yaratishni o'rganuvchi fan. Bu fanning stomatologiyaga aloqasi shuki, bunda shifokor va patsiyentlar uchun qulaylik yaratilishi, birinchi navbatda 1 ta stomatologik qurilma uchun ajratiladigan maydon ya'ni xonaning hajmi 14m² qo'shimcha stomatologik qurilmalar uchun 10m² bo'lishi lozim. Xona harorati +18-20 bo'lishi talab etiladi. Xona tabiiy va sun'iy yorug'lik bilan ta'minlangan shamollatish tizimiga ega, devor va patalog och ranglarda yuviluvchan bo'lishi kerak va albatta, devor bilan pol orasida mikroblar yig'ilib qolmasligi uchun plyuntus qo'yilishi lozim. Namlik 50-60% Havo aylanish tezligi 0,15m/s. Xona uchun 2 ta rakvina birinchisi shifokor va patsiyent uchun ikkinchisi esa ishlatilgan stomatologik asboblarni yuvish uchun va yana qo'shimcha birinchi yordam vositalariga uchun

shkaf. Agar xona shu ergonomika talablariga javob bera olsa, shifokor o'z ish faoliyatini boshlasa bo'ladi.

Stomatologiyada ishlatiladigan ashyo-asboblar 5 guruhga bo'linadi: diagnostik asboblar, plombani qorish va qo'yish uchun ishlatiladigan, plombani charxlashda, tish toshlarini olishda ishlatiladigan va pardozi berishda ishlatiladigan asboblar. Diagnostik asboblar ya'ni ko'rish uchun ishlatiladigan asboblarga: stomatologik oyna, pinset va zond kiradi. Stomatologik oyna-og'iz bo'shlig'ini ko'rishda yorug'likni tishlarga yo'naltirishda til va yanoqni chetga surishda yordam beradi. Pinset-paxta tamponi olish yoki qo'yishda, tish qoldiqlari, mayda narsalarni ushlashda, og'iz bo'shlig'ida gigiyenik manipulyatsiyalarni bajarishda ishlatiladi. Stomatologik zond 2 xil turda bo'ladi: to'g'ri va burchakli zond. Zondlar bizga karieslarni aniqlash, tish yuzasida yumshoq joylarni, kavaklarni topishda plombaning qattiqligini tekshirishda yordam beradi. Plombani qorish va qo'yish uchun ishlatiladigan asboblarga: Shpatel-plombani qorish uchun, Shtopfer-plombani zichlashtirish uchun, Gladilka-plombani qo'yish va shakllantirishda ishlatiladigan asboblar. Tish toshlarini olishda ishlatiladi: Skelerlar, hozirgi zamonaviy airflowlar. Tishlarni charxlashda borlardan dastaklardan foydalaniladi. Tishlarga oxirgi yakun pardozi berishda: stomatologik sho'tka, rezinka, disklar, frezalardan foydalaniladi.

Asbob-ashyolarga qo'yiladigan talablar: Har bir asbob ishlatilgandan keyin, tozalanishi, dezinfeksiya qilinishi, va sterilizatsiya qilinishi shart. Bir martalik ashyolar (shpirits ignasi, perchatka, maska) qayta ishlatilmasligi kerak. Asboblar mustahkam, zanglamaydigan, yuqori sifatli metallardan tayyorlangan bo'lishi kerak. Asbob shakli qulay, qo'lga oson tushadigan ergonomik bo'lishi zarur.

Xulosa

Stomatologiya qadimdan inson salomatligi uchun muhim bo'lgan fanlaridan biridir. Dastlab odamlar tish kasalliklarini xalqona usullar bilan davolagan bo'lsa, keyinchalik ilm-fan rivoji natijasida maxsus ashyo va asboblar yaratildi. Bugungi kunda stomatologiya yuqori texnologiyalar, zamonaviy materiallar va turli asbob-uskunalarga ega bo'lib, tish va og'iz bo'shlig' kasalliklarini tez va samarali davolash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Preklinik restavratsion stomatologiya darslik UO'K 616.314-085(075)
2. M.M.Shodmonov, Sh.Sh.Kamolov-Konservativ stomatologiya (preklinik mashg'ulotlar uchun qo'llanma) Toshkent. 2007.
3. N.M.Muxiddinov Stomatologik asboblar va ularning qo'llanishi. 2010.